



SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-oktabr

220-8-118-Q/25

Uzun tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmoni va viloyat hokimining 2025-yil 25-sentabrdagi 547-8-0-Q/25-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2025-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 547-8-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish (keyingi o‘rinlarda - ro‘yxatga olish tadbiri) 2026-yil 15-yanvar holatiga ko‘ra 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o‘tkazilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi tasdiqlanganligi;

ro‘yxatga olish tadbiri doirasida quyidagilar:

davlat organlari va tashkilotlari 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvarga qadar o‘z tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarning census.stat.uz portalida ro‘yxatdan o‘tishini;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi barcha o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallarida tahsil olayotgan talabalarning census.stat.uz portalida ro'yxatdan o'tishini;

Qishloq xo'jaligi vazirligi O'zbekiston fermerlari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tuman hokimliklari bilan birgalikda fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan korxona va tashkilotlarning internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishini ta'minlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha tuman komissiyasining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari B.Xasanov, Z.Abdanov, N.Xaydarqulov, Z.Mirzayeva tegishli korxona va tashkilotlar bilan birgalikda:

2025-yil 20-oktabrga qadar hududiy komissiyaning chora-tadbirlar rejasini tasdiqlasin.

2025-yil 1-noyabrga qadar:

tumanda ro'yxatga olish shtabi faoliyatini tashkil etilishini hamda ro'yxatga olish tadbirida ishtirok etadigan asosiy hamda zaxira xodimlar ro'yxatini shakllantirilishini va tasdiqlanishini;

ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishga jalb etiladigan xodimlarni o'qitish uchun mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtincha bino yoki xonalarni ajratilishini;

2025-yil 15-noyabrga qadar tumanni ro'yxatga olish va hisob uchastkalariga bo'lgan holda tashkiliy rejalarni tasdiqlanishini;

doimiy ravishda ro'yxatga olish tadbirining aholi o'rtasida keng yoritilishini;

ro'yxatga olish tadbirining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini hamda buning uchun amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha kunlik nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.

5. Tuman Ichki ishlar bo'limi, tuman Mudofaa bo'limi, tuman Favqulodda vaziyatlar bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Uzun tuman bo'limi, O'zbekiston musulmonlari idorasi Uzun tuman vakili, tuman Tibbiyot birlashmasi, tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi bilan birgalikda 2025-yil 1-noyabrdan boshlab maxsus muassasa va tashkilotlardan biriktirilgan mas'ul xodimlar tomonidan maxsus idoralardagi ayrim toifadagi aholini ro'yxatga olishni amalga oshirsin.

6. Tuman hokimligining matbuot kotibi O'.Mingboyeva 2025-yil 1-oktabrdan 2026-yil 15-yanvarga qadar ro'yxatga olishni o'tkazish haqida aholini xabardor qilish, aholini Internet orqali ro'yxatdan o'tish jarayoniga tayyorlab borish maqsadida OneID tizimiga ro'yxatdan o'tishlari bo'yicha targ'ibot-ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

7. Tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo'yicha o'rinbosari N.Xaydarqulov, tuman Fermerlar kengashi va boshqa aloqador tashkilotlar bilan birgalikda 2026-yil 15-yanvardan 31-yanvarga qadar tumanda mavjud fermer xo'jaliklari, yuridik shaxs tashkil etgan dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanayotgan korxona va tashkilotlarni "hisobot.stat.uz" portalida Internet tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tishlarini ta'minlasin.

8. Ro'yxatga olish tadbirini to'g'ri tashkil etish va samarali o'tkazishga tuman hokimining o'rinbosarlari, tuman Statistika bo'limi boshlig'i B.Mamatqulov, O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo'limi boshlig'i T.Kucharov mas'ul va shaxsiy javobgar etib belgilansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



BOZOROV X.SH.

Uzun tumani hokimining
2025-yil 7-oktabrdagi
220-8-118-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini
ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishni tashkil etish bo‘yicha
Uzun tuman komissiyasining
TARKIBI**

X.Bozorov	- tuman hokimi, Komissiya raisi
B.Xasanov	- tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Komissiya raisi o‘rinbosari
B.Boymurov	- tuman prokurori, Komissiya raisi o‘rinbosari
B.Mamatqulov	- tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i, Komissiya raisi o‘rinbosari
Lavozimiga ko‘ra	- tuman Davlat xavfsizlik xizmati bo‘limi boshlig‘i
N.Xaydarqulov	- tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
Z.Abdanov	- tuman hokimining yoshlar va ijtimoiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari
Z.Mirzayeva	- tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
T.Kucharov	- O‘zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo‘limi boshlig‘i
B.Rahmatullayev	- Uzun tuman hokimligi Raqamli iqtisodiyotni joriy etish bo‘yicha loyihalar menejeri
O‘.Mingboyeva	- Uzun tumani hokimining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot kotibi
S.Xudoyqulov	- tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
O‘.Mustafoqulov	- tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
Sh.Xusanov	- tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i
A.G‘afforov	- tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i
S.Yo‘ldoshev	- tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
X.Rasulov	- tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
E.Saidov	- tuman Milliy gvardiya bo‘limi boshlig‘i
S.Abdiyev	- tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
M.Shodmonov	- tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
S.Xujamqulov	- Davlat Kadastrlari palatasi Uzun tuman bo‘limi

I.Xoliqov
A.Xasanov

- boshlig'i
- Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i
 - "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi boshlig'i

Izoh: Komissiya a'zolari boshka ishga utgan takdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.